

**MEHR NURI YOG‘AR DOIM YUZINGIZDAN USTOZLAR,
YURSAM DEYMAN BU TABARRUK IZINGIZDAN USTOZLAR!**

Yuldashboyeva Sarvinozbonu Mash‘albek qizi

Andijon davlat universiteti talabasi

Ma‘rifatga fidoyi jon:

Biri - Abdulhamid Cho‘lpon,

Biri - Abdulhamid Nurmon!

Har kuni minglab chaqaloqlar dunyoga keladi, lekin o‘sha minglar orasidan juda ozchiligi o‘z nomi bilan dunyoda abadiy qoladi. Ularning nomlari sharafiga har doim takrorlanadigan oddiy sanalar muhim ahamiyat kasb etadi.

1942-yil 15-may...

Ushbu kunda qancha inson dunyoga kelgan bo‘lishi mumkin? Yuzlab... minglab... hatto millionlab... Lekin ushbu ulug‘ kunda sanoqli kishilarning ismlari minbardan yangraydi. Butun ilm-fan ahli shu sanaga alohida tayyorgarlik bilan yig‘iladilar.

Bundan roppa-rosa 82 yil muqaddam o‘sha millionlab tug‘ilgan chaqaloqlar orasida Abdulhamid Nurmonov ham bor edi. O‘sha quvonchli kunda hamshira o‘zbek millatini o‘zbek tili orqali yuksaklarga olib chiqadigan inson tug‘ilgani haqida o‘ylab ko‘rganmikan?

Yillar o‘tdi...

Afsus, shunday ulug‘ inson oramizda yo‘q. Balki hozir hayot bo‘lganlarida 82 yoshini hamkasblari, shogirdlari, oila a‘zolari davrasida qarshi olgan bo‘larmidi...

Buyuk insonlar haqida xotira yozish juda ham mashaqqatli va mas‘uliyatli ish. Ayniqsa, u insonning ulug‘ siymosi faqat tasavvurimizda gavdalansa. Ming afsuslar bo‘lsinki, bizga shunday inson bilan ko‘rishish nasib qilmadi. Biz u insonni yozgan kitoblari, amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlari orqali tanidik. Chin odamiylik jihatini esa ustozning zamondoshlari, qadrdon hamkasblari, sadoqatli shogirdlarining xotiralari orqali ko‘rdik. Va bu ikki jihat olimni komil inson tarzida xayolimizda gavdalantirdi. Ustozga bo‘lgan havasimiz va ixlosimiz tufayli shu o‘chmas xotiralarga tayangan holda, o‘z mulohazalarimizni qoralashga qaror qildik.

Til ilmining yetuk vakili Abdulhamid Nurmonov nafaqat iste‘dodli olim, tajribali pedagog, balki chin insoniylikni o‘zida mujassamlashtirgan mukammal shaxs edi. Olim hamisha o‘zbek tili tadqiqiga to‘g‘ri yondashishning yo‘llarini izlab kelgan. Tilimizdagi hech kim ahamiyat bermagan, e‘tibordan chetda qolgan nozik va muhim qirralarini ko‘rolgan chinakam ilm sohibi edi.

Abdulhamid Nurmonov bor kuch-g'ayratini, butun vujudini, umrini o'zbek tiliga bag'ishladi. Hozir biz uchun o'zgarmas haqiqatga aylangan "kesim – gapning markazidir" degan jumla ustida u yillab ishladi. Abdulhamid Nurmonov Sovet Ittifoqining marksistik ta'limotidan ezilgan o'zbek tilini har tomonlama izchil, aniq va mukammal o'rganish mumkin bo'lgan metodologiyani ishlab chiqdi. U rus tilshunosligi andazalari asosida boshqa sistemadagi tillarni o'rganib bo'lmasligini, tilga har tomonlama yondashish uning ko'z ilg'amas, nozik qirralarini ochib berishini isbotladi. Ustozimiz Abdulhay Sobirov aytganidek, "olim o'zbek tilshunosligini rus tilshunosligi o'ramidan yangi sifat bosqichiga olib chiqishda jonbozlik ko'rsatdi. Boduen de Kurtene, Ferdinand de Sosyur, Vilgelm fon Gumboldt, A. Shleyxer, A. Meye, L. Elmslev, E. Benvenist, A. Fortunatov, Sh. Balli kabi zabardast tilshunoslarning qarashlarini o'zbek tiliga dadil olib kirdi." Bu esa o'zbek tilshunosligining jahon tilshunosligidan ortda qolmasligiga va yanada yuksalishiga zamin bo'ldi. Olim mustaqillikdan keyingi o'zbek tilimizni tartibga solishday sharaflari ishda samarali mehnat qildi. U tilning ma'lum bir doirasida cheklanib qolmay, eng kichik detallargacha e'tibor qaratdi va tilshunoslikning hamma sohalarida faoliyat yuritdi. Uning mehnatlari o'zbek tilshunosligi rivojlanishiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Abdulhamid Nurmonovning tilshunoslikdagi ilmiy faoliyatini bor bo'y-basti bilan ko'rsatib beruvchi 72 bosma taboqdan iborat 3 jildlik "Tanlangan asarlar"i dunyoga keldi. Ushbu kitobga olimning umri davomida yaratgan asarlari jamlangan. Unda juda ko'p olimlar o'rtasida bahsli bo'lib turgan dolzarb masalalar o'zining aniq ifodasini topgan. Bu asar tom ma'noda tilshunoslikka kirib kelayotgan har bir yosh tadqiqotchi uchun mayoq vazifasini o'tab kelmoqda.

"O'zbek tilshunosligining otasi" hisoblangan Ayyub G'ulomovning izidan borgan olim Andijon tilshunoslik maktabiga asos soldi. Ko'pchilik olimlar ta'kidlaganiday, ustoz "o'zbek tilshunosligida o'ziga xos maktab yarata oldi". U o'zbek tilining o'tmishini va kelajagini ongli ravishda ko'ra olgan va bugunini jahonning eng so'nggi metodlari asosida yaratib bergan favqulodda bilim sohibi edi. Olimning "O'zbek tilshunosligi tarixi", "Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari", "Tilshunoslik va tabiiy fanlar" kabi asarlari fikrimizning yaqqol isbotidir. "O'zbek tilshunosligi tarixi" nomli asari o'zbek tili haqida moziydan so'zlovchi ilk xronologik asar hisoblanadi. Unda Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Bobur kabi allomalarimizning lingvistik qarashlari yirik planda yoritib berilgan.

Hozirgi davrda tilshunoslikning boshqa fanlar bilan hamkorligi natijasida rivojlanayotgan yangi yo'nalishlarning ilk kurtaklarini Nurmonovning "Tilshunoslik va tabiiy fanlar" nomli kitobida uchratishimiz mumkin. Unda tilshunoslikning sotsiologiya, psixologiya, adabiyot, etnografiya, nevrologiya bilan munosabatlari

haqidagi teran mulohazalari bugungi kunda sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvopoetika, etnolingvistika, neyrolingvistika sohasidagi tadqiqotlar uchun poydevor vazifasini bajarmoqda. Bu yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy ish qilayotgan har bir tadqiqotchi Abdulhamid Nurmonovning nazariyalariga tayanadi. Xususan, birgina paralingvistika sohasida olimning "o‘zbek paralingvistik vositalari" nomli kitobi har qanday tadqiqotlarning tub negizini tashkil qiladi. Lingvopoetikaga bag‘ishlangan har qanday asar olimning boshlab bergan nazariy qarashlaridan ilhomlangan holda yoziladi. Hozirgi kunda dolzarblashib borayotgan kompyuter lingvistikasi va avtomatik tarjima nazariyasi ham olimning e‘tiboridan chetda qolmadi. Albatta, bunday qarashlar ustozning faqatgina tilshunoslik sohasini emas, balki boshqa fanlarni ham chuqur bilganligidan dalolat.

Olim o‘z davrining yetakchi yo‘nalishi bo‘lgan struktur tilshunoslikni o‘zbek tiliga tadqiq etishda samarali ishlar qildi. Dunyoning mashhur tilshunoslaridan bo‘lgan F. de Sossyur ta‘limotini o‘zbek tiliga tadqiq etish XX asrning 90-yillarida Hamid Ne‘matov tashabbusi bilan boshlanib, A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Rahmatullayev kabi bir qancha olimlarimiz tomonidan rivojlantirildi. Bu sohada ham ustozning tinimsiz izlanishlari, mehnatlari samarasi o‘laroq, "Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari" nomli asar dunyo yuzini ko‘rdi. Bu asar o‘zbek tilshunosligida tub burilish yasadi, ya‘ni asarda tilga sistemaviy-struktur jihatdan yondashishning eng maqbul yo‘llari ishlab chiqildi. A. Nurmonovning bu asari "Yilning eng yaxshi o‘quv adabiyoti" darajasiga ko‘tarildi va 1-o‘ringa munosib deb topildi.

O‘zbek tilshunosligini bosqichma-bosqich rivojlantirishga o‘zining katta hissasini qo‘shgan olimning ilmiy faoliyatini ham o‘zi yaratgan sistema tamoyiliga qiyoslasak bo‘ladi, ya‘ni doimo pog‘onama-pog‘ona o‘sib borish tartibida bo‘ladi. Ustozning birinchi nomzodlik ishi "O‘zbek tilidagi tovush o‘zgarishlarida ekonomiya prinsipi" bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda semantika, semiotika, morfologiya va sintaksisga bag‘ishlangan qator asarlari yaratildi. Undan so‘ng "O‘zbek tili sintaksisini sistema sifatida o‘rganish muammolari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Bu borada shogirdlarining fikrlari ham bunga dalil bo‘la oladi."Domlaning yonida yurib, fikr-mulohazalaridan, maqsadlaridan voqif bo‘lgan inson sifatida bemalol aytishim mumkinki, u bu ta‘rifga sig‘maydigan ishlarni shoshilmay, sokinlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirardi."

Bulardan ko‘rinib turibdiki, ustoz Abdulhamid Nurmonov hayotda ham, ilmiy faoliyatda ham tizimli ishlagan va har bir ishini reja asosida puxtalik bilan yaratgan desak, xato qilmagan bo‘lamiz.

O‘zbek tilshunosligi kafedrasida oddiy o‘qituvchilikdan to professor darajasigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tgan olim umrining so‘nggiga qadar "til dardi" bilan yashadi. Chinakam odamiylik bilan olimlikni o‘zida birlashtirgan bu samimiy

inson haqida hamkasblari, shogirdlari ham yorqin xotiraga egalar. Ulardan ustozning nafaqat iste'dodli olim, balki tajribali pedagog, jonkuyar ilmiy rahbar bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Bu borada ustozga avval shogird, so'ngra hamkasb bo'lgan ilm sohiblarining fikrlariga tayanadigan bo'lsak: "domla hech bir ilmiy xulosaga kelishda shoshilmas, masalani chuqur o'rganar edi. Yetuk olimlar fikrini o'rganar, ammo ularga ko'r-ko'rona ergashmas edi. Uzoq tadqiqlardan keyingina o'z fikrini bayon etar, ifodasi akademik, ammo tushunarli va sodda bo'lardi." Bundan ko'rinib turibdiki, ustozning fanda o'ziga xos yo'nalishi bo'lgan, ya'ni har bir olimning fikrlarini chuqur tahlil qilib, ularni atroflicha o'rganib, so'ngra unga o'zining asosli dalillari orqali eng to'g'ri yo'lni belgilagan, ya'ni "Abdulhamid Nurmonovning o'ziga xos individual uslubi bo'lgan. Muallif yozgan har bir satr, nazariy fikr, amaliy tahlil, hatto qo'ygan sarlavhalari ham faqat uning o'zigagina xos bo'lgan originallikka ega edi. Muallifning nomi o'qilmay turib, ishning Nurmonovniki ekanligi bilinib turardi." Bu fikrlar ustozning kitoblarida yaqqol namoyon bo'ladi. Fanga endigina kirib kelayotgan yosh tadqiqotchilar ham ushbu kitoblarda g'aliz jummalarga duch kelmaydi. Bu borada umumta'lim maktablari uchun yaratilgan darsliklar ham fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi. Keyingi avlod, ya'ni biz ustoz yaratgan darsliklarni o'qib ushbu fanga mehr qo'yanmiz. Demak, ustozning yosh avlod qalbida tilga nisbatan mehr uyg'onishida ham hissasi katta bo'lgan.

Yaxshi inson har doim o'zidan yaxshi xotira qoldirib ketadi. Bu xotira insonlar qalbida bo'ladi va ular hech qachon unutilmaydi. Ustoz haqida "yarim asrlik qadrdoni" professor Alijon Mamajonov shunday yozadi: "Abdulhamid aka juda keng qamrovdagi insoniy fazilatlarga ega edilar: bag'rikenglik, samimiylik, mehribonlik, o'zgalarga e'tiborlilik, vazminlik, kichik ko'ngililik, eng muhimi, odillik, kamtarlik, xokisorlik, odamiylik, beminnat maslahatgo'y, qo'yingki, sanog'iga yetib bo'lmaydigan fazilatlar sohibi edilar. Ustozdagi bu insoniy fazilatlarni jamlagan holda: "Abdulhamid Nurmonov odamiy olim edilar" desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz." Abdulhamid Nurmonov o'zining kuchli bilimi, samimiyati va ilm yo'lidagi g'ayrati tufayli juda ko'p shogirdlarining qalbidan joy oldi. Har bir yosh tadqiqotchiga qo'lidan kelganicha ilmiy ko'mak va xolis maslahat berib ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga qo'shgan hissalar alohida masala. Bu borada xotiralarni jamlab bir kitob yaratsa bo'ladi. Buni ushbu satrlar isbotlaydi: "Ustozda boshqa ilm ahlida uchramaydigan yana bir noyob fazilati ham bor ediki, bu o'z shogirdlariga nisbatan otalarcha mehribonligida, gina-kudrat saqlamasligida, hammani birdek ko'rishida, shogird tanlamasligida namoyon bo'ladi. Ayrim ustozlar shogirdlarining shajarasi, mansabi, qaysi joydan ekanligiga qarab muomala qilishsa, ustozda bunday holat umuman yo'q edi: shogirdlarining iqtidoriga, bilimiga, intilishlariga qarab muomala qilardi. Shu bois, Andijondan boshlangan shogirdlar

halqasi O‘sh, Jalolobod, Farg‘ona, Namangan, Qo‘qon, Toshkent, Samarqand va boshqa hududlargacha yoyilib ketgandiki, boshqa domlalar bunga havas bilan qarardi." Bu bilan ustoz nafaqat o‘zining tilshunoslik maktabiga, balki odamiylik, insoniylik maktabiga ham asos soldi. Bugungi kunda ustozning hech bo‘lmaganda bir og‘iz maslahatini olgan insonlarda ham ushbu sifatlarni ko‘rishimiz mumkin. Domlaning oldida yurgan shogirdlarida esa bu fazilatlar to‘la-to‘kis mujassam bo‘lgan. Demak, ustoz faqatgina ilmni emas, ilm orqali haqiqiy olim qanday bo‘lishi kerakligini ham o‘rgatib ketganlar. To‘g‘risi, men bu insonlarga havas ko‘zi bilan boqaman. Chunki ular shunday inson bilan yonma-yon, yelkama-yelka turib tilshunosligimizning shu darajaga kelishiga sababchi bo‘ldilar.

So‘zimizning so‘ngida ustozning eng yaqin insonlaridan biri Abduvali Berdialiyevning otashin dil izhorlarini keltirib o‘tishni o‘rinli deb bildik. Go‘yo bu jumlar butun minbardan yangrayotganday:

"ABDULHAMID! Siz buyuk INSON edingiz! Sizning shodon ruhingiz aslo va aslo so‘nmagay! Siz o‘z qo‘lingiz bilan o‘zingizga abadiy haykal o‘rnatgan INSONSIZ! Siz do‘stlaringiz, iqtidorli shogirdlaringiz, kelajak avlodingiz qalbida abadiy barhayotsiz! Shodon ruhingiz yo‘ldoshingiz bo‘lsin, hurmatli do‘stim ABDULHAMID!"

Ushbu so‘zlarga butun qalbimiz bilan qo‘shilgan holda, bizdek tolibi ilmlar uchun bu sermahsul umr - yuksak ibrat namunasi, bu inson esa hamisha ilmiy dunyoqarashimizdagi eng yuqori cho‘qqi bo‘ladi.